




XORAZM VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI



# XORAZM VILOYATIDA O'RTA-MAXSUS, PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI



# XORAZM VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

## Xorazm viloyatida o'рта maxsus, professional ta'lim tizimi

Professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'рта va o'рта maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida, 2020/2021 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasida Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (TXST) darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'рта va o'рта maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etildi.

*Ma'lumot uchun:* Milliy ta'lim tizimlarining tuzilishi va ta'lim dasturlari mazmuni xilma-xilligi tufayli turli mamlakatlarning erishgan natijalarini taqqoslash, solishtirish va ularning milliy va xalqaro miqyosdagi maqsadlar sari olg'a siljishini kuzatish qiyin bo'lishi mumkin. Global miqyosda ta'lim tizimlarining jihatlari va jarayonlarini tushunish va to'g'ri talqin qilish uchun ma'lumotlarning solishtirilishini ta'minlash ayniqsa muhimdir. Bunga xalqaro miqyosda taqqoslanadigan statistik ma'lumotlarni tasniflash va taqdim etish uchun kontseptual hujjat - Ta'limning Xalqaro Standart Klassifikatsiyasidan (TXST) foydalanish orqali erishish mumkin.

TXST-2011 tasnifi 2011- yil noyabr oyida YUNESKO Bosh konferensiyasining 36-sessiyasida qabul qilingan. Dastlab YUNESKO tomonidan 1970- yillarda ishlab chiqilgan va birinchi marta 1997- yilda qayta ko'rib chiqilgan TXST tasnifi milliy va xalqaro miqyosda ta'lim statistikasini yig'ish va taqdim etish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hujjat butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimidagi yangiliklarni yanada aniqroq aks ettirish uchun vaqti-vaqti bilan yangilanib turiladi.

## Xorazm viloyatida o'rta maxsus, professional ta'limi tizimi

**O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda** to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

### Professional ta'lim

**Boshlang'ich  
professional ta'lim**



**O'rta professional  
ta'lim**



**O'rta maxsus  
professional ta'lim**



**Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida** IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.


**O'rta professional ta'lim kollejlarda** davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

**O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda** umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.


# XORAZM VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

## Akademik litseylar soni, birlikda (o'quv yili boshiga)

**Ma'lumot uchun:** O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.



## Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni (o'quv yili boshiga ming kishi)



Xorazm viloyatida 2021/2022 o'quv yili boshida **4** ta akademik litsey mavjud bo'lib, ularning barchasi Urganch shahrida joylashgan. Ularda jami **2,0** ming nafar o'quvchi tahsil olmoqda.

# XORAZM VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI




Qiz bolalar  
**42,3 %**

O'g'il bolalar  
**57,7 %**

## Akademik litsey o'qituvchilari (o'quv yili boshida, kishi)

2021- yilda akademik litseylarda dars beradigan o'qituvchilar soni 2020-yilga nisbatan **34** nafarga yoki **15** foizga kamaydi va **192** nafarni tashkil etdi.




■ 2020/2021- y. ■ 2021/2022- y.

## Akademik litsey o'quvchilarining gender taqsimoti, % (2021/2022 o'quv yili boshida)

Agar akademik litseylardagi barcha o'quvchilarni 100 foiz deb olinsa, ularning **42,3%** qizlar, **57,7%** ini o'g'il bolalar tashkil etadi.

## Akademik litsey o'qituvchilarining gender taqsimoti (2021/2022 o'quv yili boshiga)




Akademik litseylarda jami o'qituvchilar soni 100 foiz deb olinsa, ularning **53,6** foizini ayollar, **46,4** foizini erkaklar tashkil etadi.


# XORAZM VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

**Ma'lumot uchun:** Kasb-hunar maktablarida kadrlar tayyorlash umumta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda 2 yillik umumta'lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlari asosida kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi.

## Kasb-hunar maktablari soni, birlikda



## Kasb-hunar maktablarini hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda (2021/2022 o'quv yili boshiga)




2021/2022 o'quv yili boshida Xorazm viloyatida **25** ta kasb-hunar maktablari mavjud bo'lib, ularning eng ko'p soni Gurlan va Xonqa tumanida (**3** ta), eng kami – Tuproqqal'a, Xiva tuman va Xiva shahrida (**1** ta) qayd etilgan.


# XORAZM VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Kasb-hunar maktablarida tahsil olayotgan  
o'quvchilarning taqsimlanishi, ming kishi  
(o'quv yili boshiga)

Hududlar bo'yicha  
2021/2022 o'quv yili boshiga



Xorazm viloyati



2021/2022 o'quv yili boshida kasb-hunar ta'limi muassasalarida **8,6** ming o'quvchi tahsil olmoqda. Hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Hazorasp tumanida – **1,1** ming nafar, eng kami Xiva tumanida – **0,3** ming nafar.

# XORAZM VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


Agar kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi barcha o'quvchilar **100** foiz deb olinsa, ularning **25,2** foizini qizlar, **74,8** foizini o'g'il bolalar tashkil etadi.



Qiz bolalar  
**25,2 %**

O'g'il bolalar  
**74,8 %**


## Kasb-hunar maktablari o'quvchilarining hududlar bo'yicha gender taqsimoti, % da (2021/2022 o'quv yili boshida)






# XORAZM VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

## Kasb-hunar maktablarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi (o'quv yili boshida, o'rindoshlarsiz)



■ 2021/2022 ■ 2020/2021




2021- yilda kasb-hunar maktablarida dars beradigan o'qituvchilar soni 2020- yilga nisbatan **20** nafarga yoki **5,5** foizga ko'payib, **382** nafarni tashkil etdi.

Hududlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Xonqa tumanida – **51** nafar, eng kami – Xiva tumanida – **12** kishi qayd etilgan.


# XORAZM VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

## Kollejlar soni, birlikda (o'quv yili boshiga)

### Hududlar bo'yicha



### Xorazm viloyati




2021/2022 o'quv yili boshida Xorazm viloyatida **10** ta kollej mavjud bo'lib, hududlar bo'yicha eng ko'pi Xiva shahrida (**3** birlik), qayd etilgan.

# XORAZM VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI



## Kollej o'quvchilarining taqsimlanishi, ming kishi (2021/2022 o'quv yili boshiga)

### Hududlar bo'yicha



■ 2021/2022 ■ 2020/2021

### Xorazm viloyati




2021/2022 o'quv yili boshida Xorazm viloyatidagi 10 ta kollejda 6,0 ming nafar o'quvchi tahsil olmoqda, eng yuqori ko'rsatkich Xiva shahrida (3,2 ming o'quvchi), eng kam ko'rsatkich Tuproqqal'a tumanida (0,1 ming kishi) qayd etilgan.


# XORAZM VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

## Kollej o'qituvchilarining taqsimlanishi (o'quv yili boshiga, o'rindoshlarsiz)

### Hududlar bo'yicha



### Xorazm viloyati




2021/2022 o'quv yili boshida kollejlarda **263** nafar (o'rindoshlarsiz) o'qituvchilar faoliyat ko'rsatmoqda, bu ko'rsatkich 2020- yilga nisbatan (2020- yilda – **270** nafar) 2,6 foizga kamaygan.


■ 2021/2022    ■ 2020/2021

# XORAZM VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

## Texnikumlarni hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda (o'quv yili boshiga)



### Xorazm viloyati




Xorazm viloyatida 2021/2022 o'quv yili boshida texnikumlar soni 13 tani tashkil etdi, 2020/2021 o'quv yili boshiga nisbatan 4 taga ko'paydi.




# XORAZM VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

## Texnikum talabalarining taqsimlanishi, ming kishi (o'quv yili boshiga)

### Hududlar bo'yicha



### Xorazm viloyati




2021/2022 o'quv yili boshida Xorazm viloyatidagi texnikumlarda **4.4** ming talaba tahsil olmoqda, eng yuqori ko'rsatkich Urganch shahrida (**2,2** ming), eng past ko'rsatkich Yangiariq tumanida (**0,1** ming) qayd etilgan.

■ 2021/2022 ■ 2020/2021


# XORAZM VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

## Texnikum o'qituvchilari soni, kishi (o'quv yili boshida)

### Hududlar bo'yicha



### Xorazm viloyati



2021/2022 o'quv yili boshida texnikumlarda **199** nafar o'qituvchi faoliyat yuritgan, bu o'tgan o'quv yiliga (**152** nafar) nisbatan **1,3** barobar ko'pdir. Hududlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Urganch shahrida – **109** nafar, eng kami – Yangiariq tumanida – **3** nafar qayd etildi.

■ 2021/2022    ■ 2020/2022

## **Statistik ko'rsatkichlarga izoh**

**O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tizimi** – boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional, kasb-hunar ta'limi maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy, o'quv-metodik, moddiy-texnik va psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlaydigan akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlar, texnikumlardan iborat bo'ladi.

**Akademik litsey** – uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat umumta'limi andozalari doirasida bepul umumiy ta'lim olishning kafolatlangan huquqi va imkoniyatini beradi.

**Professional ta'lim** – ta'lim oluvchilarda ma'lum bir mutaxassislik va kasblar bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradigan va rivojlantiradigan uzluksiz ta'lim tizimi.

**Kasb-hunar maktabi** – Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasasi hisoblanadi.

**Kollejlar** – Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida o'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.

**Texnikumlar** – Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan, oliy ta'lim muassasalari huzurida faoliyat yuritadigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.